

**BUZOQLARNI SUT EMISH DAVRIDA OZIQLANTIRISH.**  
**КОРМЛЕНИЕ ТЕЛЯТ В ПЕРИОД ЛАКТАЦИИ.**  
**FEEDING CALVES AND PERIOD LACTATION.**

**O.B.To‘xtayev SamDVMCHBU assistenti**

**O.H.Temirov SamDVMCHBU talabasi**

**О.Б. Тохтаев – ассистент СамДВМЧБУ.**

**О. Х. Темиров – студент СамДВМЧБУ.**

**О.В. Tokhtaev - assistant SamDVMChBU.**

**О. Х. Temirov is a student of SamDVMChBU.**

**Annatetsiya.** Ushbu maqolada buzodlarni oziqlantirish haqida ma'lumotlar keltirilgan bo'lib ularga beriladiga sun'iy sut, sutning kimyoviy tarkibi haqida ma'lulotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar.** Buzoq, sut, sut emish davri, sun'iy sut, suv, mineral moddalar, oqsillar almashinuvi

**Аннатация.** В данной статье содержится информация о кормлении телят искусственным молоком и химическом составе молока.

**Ключевые слова.** Теленок, молоко, период лактации, искусственное молоко, вода, минеральные вещества, белковый обмен.

**Annathetia.** V dannoy state soderjitsya informatsiya o kromlenii telyat iskusstvennym molokom i khimicheskom sostave moloka.

**Key words.** Telenok, moloko, period lactatsii, iskusstvennoe moloko, voda, mineralnye veshchestva, protein exchange.

Chorvachilik qishloq xo'jaligining etakchi tarmoqlaridan biri bo'lib hisoblanadi, aholini sut, go'sht va sut-go'sht mahsulotlari bilan ta'minlashda alohida o'rinn tutadi.

Mamlakatimiz aholisini chorvachilik mahsulotlari bilan ta'minlash maqsadida chorva mollarini bosh sonini ko'paytirish va ularning mahsuldorligini oshirishga katta etibor berilmoqda. Ushbu sohani rivojlantirish yuzasidan Mamlakatimiz Prezidenti va Vazirlar mahkamasi tomonidan bir qator qaror va farmoishlar chiqarilgan.

Buzoqlarni o'stirish tizimi ularning biologik jihatlarini hisobga olgan holda, buzoqlarning yaxshi o'sishi va rivojlanishiga, mahsuldorligining shakllanishiga, mustahkam konstitutsiyali va xo'jalikda foydalanish vaqtining uzayishiga yordam beradigan bo'lishi kerak.

Yosh buzoqlarning energiyaga va ozuqaviy moddalarga ehtiyojini aniqlashda modda almashunivining o'ziga xosligini, turli yoshdag'i o'sish davrining intensivligini hisobga olmoq kerak. (K.Kariboev va boshq. 1988). Tug'ilgandan keyin birinchi kunlardanoq buzoqlar o'zida yuqori miqdorda (oddiy sut bilan taqqoslanganda) oqsil, yog', mineral

moddalar, vitaminlarni og‘iz sutini albatta olishlari kerak. Og‘iz sutida yana globulin bilan bog‘liq bo‘lgan antijism (himoya moddasi) bo‘lib, yangi tug‘ilgan buzoqlarni kasallik keltiruvchi mikroblarga qarshi immunitet bilan ta’minlaydi. Sut emadigan davrda hazm qilish organlarida ko‘pgina o‘zgarishlar bo‘ladi, o‘simliklardan olgan ozuqalardagi to‘yimli moddalarni o‘zlashtirish qobiliyati yo‘lga tusha boshlaydi, suv, mineral moddalar, oqsillar almashinushi kuchayadi. Organizmda a’zolar va to‘qimalarning jadal o‘sishi, ayni vaqtida molning kunlik o‘sishi yuqori bo‘lishi bilan ajralib turadi.

Buzoqlarnini o‘stirishda yilning birinchi yarmida ko‘p bo‘lmagan miqdordagi qaymog‘i olingan sut (yoki ZSM) bilan boqilib 600-650 g atrofida o‘sishiga erishilsa, yilning ikkinchi yarimida bu sur’at yanada jadalroq kechadi. Tug‘ilgandan keyingi 3-4 oy ichida mol o‘rtacha o‘sib, keyinchalik yaxshi oziqlantirilganda 12 oyga borib buning o‘rnini qoplanadi. Tug‘ilgandan keyingi birinchi oyldarda o‘sish 700-800 g dan asta-sekin 18 oyga qadar 450-500 g kelib, buzoqning o‘sish sur’ati pasaya boradi. Yosh, o‘savotgan mollar energiyani tejamli sarflab va oziqlardagi proteindan yaxshi foydalanib, yuqori darajada o‘sishni ta’minlashga qodirdir. Yosh buzoqlarning bunday biologik xususiyatidan foydalanish uchun ularni to‘la qimmatli ozuqlar bilan ta’minlash lozim.

Buzoqlarning yosh davrdagi o‘sish sur’ati yog‘ga nisbatan oqsilning ko‘pligi bilan ajralib turadi. Yosh mollarining yoshi o‘tishi bilan tanasida yog‘ va mineral moddalar yig‘ilishi ortib boradi. Biroq, o‘sishi va og‘irligining yanada oshib borishida oziqlantirish darajasi kuchli ta’sir etadi. Haddan tashqari oziqlantirish mol tanasida ko‘prog‘ yog‘ yig‘ilishiga olib keladi. Buzoqlarni oziqlantirish darajasi tug‘ilgan vaqtdagi vazniga nisbatan 12 oyligida 7,5-8,0 marta va 18 oyligida 11-12 marta oshishini ta’minlaydigan bo‘lishi kerak.

1-jadval

Sun’iy sut retsepti («Atina» firmasi), %

№	Tarkibi	Retseptlar	
		«Vitulak mast» I	«Vitulak mast» II
1	Yog‘i olingan sut (quruq)	73,5	70,2
2	Quritilgan zardob	6,1	3,0
3	Mol yog‘i	17,0	17,0
4	Antibiotik (soya shroti bilan)	1,0	1,0
5	Makkajo‘xori kraxmali	1,0	-
6	Javdar kraxmali	-	6,8
7	Makkajo‘xori moyi	0,4	0,4
8	Litsitin	0,4	0,4
9	A va D vitamin (bug‘doy uni bilan)	0,25	0,7
10	Anivit V-10K	0,25	0,4
11	Magniy oksidi	0,1	0,1
Sun’iy sut tarkibida:			

1	Xom protein	27	23,2
2	Xom yog‘	15,5	15,1
3	Xom kletchatka	0,2	1,0

O‘zbekiston sharoitiga xos bo‘lgan yosh buzoqlar uchun sun’iy sut retseptini O‘zbekiston chorvachilik ilmiy tadqiqot institutining olimlari tomonidan ishlab chiqilgan (2-jadval).

2-jadval

Sun’iy sut retsepti  
(K.Karibaev ma’lumoti bo‘yicha, 1987 y.)

№	Tarkibi	Retseptlar	
		№ I	№ II
1	Soya uni, kg	130	130
2	Suv, l	658	658
3	Gidroliz sharbati (30% qandli), l	10	-
4	SHakar (45 kunlikdan so‘ng beriladi), kg	-	3
5	Bo‘r, kg	1,0	1,0
6	Osh tuzi, kg	0,6	0,6
7	Trivitamin, g	1,0	1,0
8	Batsixilin, g	150	150
9	Temir sulfati, g	200	200
10	Miss sulfati, g	5,0	5,0
11	Rux sulfati, g	22,0	22,0
12	Maganets sulfati, g	22,0	22,0
13	Yodli kaliy, g	1,8	1,8
14	Xlorli kobalt, g	5,7	5,7

Bu sun’iy sutning to‘yimliligi 0,22 ozuqa birligiga teng va 1 kg da 42 g hazmlanuvchi protein bor. Ushbu sun’iy sutdan 11-20; 21-30; 31-40; 41-50; 51-60, 61-70,71-80, 81-90 kunligida mos ravishda 1,5; 3,0; 3,5; 4,5; 5,0; 5,0; 4,5; 4,5 kg dan jami 315 kg sun’iy sutni 175 kg sof sutni o‘rniga ichirish mumkin.

R. Xamraqulov (1999 y.) ma’lumotlariga qaraganda, buzoqlarni boqish uchun o‘sish rejasi, xo‘jalikda bir bosh buzoq uchun emizishga mo‘ljallangan sut miqdori xo‘jalikning tabiiy va shart sharoitlarini hisobga olib ular uchun buzoqlarni boqish tizimi tanlanadi. Bu tizimlardagi asosiy farq ularning o‘rtacha kunli o‘stirilishi, sarf qilinadigan sut va konsentrat ozuqlalar miqdoriga bog‘lik. Ulardan tashqari yoz va qish fasillarida nasl uchun o‘stirilayotgan buqachalarni hamda naslga yaroqsiz bo‘lgan, kelgusida go‘sht uchun boqiladigan erkak va urg‘ochi buzoqlarni 6 oygacha boqish uchun alohida tizimlar keltirilgan. Sun’iy sut sutni qo‘llashga moslashgan usullarda sof sut birinchi 10 kundan so‘ng sun’iy sutga o‘tkazib 20-50 kun mobaynida sun’iy sutni talqoni suvda eritilib (1,0:10)

beriladi. Nasl uchun parvarishlanayotgan naslli buqachalar va go'sht uchun boqilayotgan buzoqlardan yuqori kunlik o'sish talab qilinganligi uchun ularga 50-60 kun davomida sof sut va 50 kunligidan (go'sht uchun o'stirilayotgan buzoqlarga esa 21 kunligidan) boshlab 140-180 kunligigacha yog'i olingan sut beriladi.

Tovar fermalarida va go'sht uchun o'stirilayotgan buzoqlarni boqishda inson uchun qimmatli bo'ilgan sutni bir qismini sun'iy sut evaziga to'ldirish mumkin.

Adabiyotlarda har xil sun'iy sutlarning retseptlari mavjud. CHorvachilik sohasi bo'yicha yuksak ko'rsatkchlarga erishgan ba'zi chet el firmalari ham ishlab chiqarish uchun o'ng'ay sun'iy sut retseptlarini tavsiya qiladilar.

Masalan, Niderladiyaning «Atina» firmasi «Vitulak mast» I va II retseptlarini (1-jadval) taklif qiladilar. (N.I. Kleymenev va boshqalar 2001 y.).

I.Tursunovning (2008) ma'lumotiga qaraganda buzoqlar uchun ular hayotining birinchi haftasida sutning qaymog'i olingani ham, olinmagani ham mahimdir. Uni 35 S<sup>0</sup> xaroratda qizdirib berish kerak. Ammo ko'p hollarda sut buzoqxonaga bir oz achigan xolda, lekin to'liq ivimagan xolda keltiriladi. Bu xil sutda bir qancha mikroblar bo'lib, ular ich ketishni keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun sut tarkibidagi qand sut kislotaga aylanib, tarkibidagi bakteriyalar zararsizlanmagunicha kutish kerak.

20 kg sutga 0,5-1,0 kg ayron qo'shib, yog'och idishda 25 C<sup>0</sup> haroratda saqlansa, yaxshi iviydi va 24 soatdan so'ng prostavasha (chuchuk qatiq) tayyor bo'ladi.

Agar xo'jalikda yog'sizlantirilgan sutni ivitishga joy bo'lmasa, unga sirka, chumoli, eng yaxshisi limon kislota har 10 kg sutga 20 g miqdorida 25 C<sup>0</sup> haroratda qo'shiladi va yaxshilab aralashtiriladi.

Buzoqlar uchun yana qulay va ishonchli ozuqa bu yog'i olingan quruq sutdir. U tarkibidagi to'yimli moddlar bo'yicha yangi sog'ilgan sutga tenglashadi. Quruq suttan foydalanishning asosiy kamchiligi uning qimmatliligidadir.

Buzoqlar ratsioniga turli ozuqa aralashmalari va sut almashtirgichlar ham kiritiladi. Aralashmalar quruq holda kuniga ikki marta buzoq xoxlaganicha beriladi. Buzoq 10 haftalik bo'lib, sutkasiga 1,5 kg ozuqa aralashmasini yeydigan bo'lganda miqdori me'yorlanadi. Ozuqa aralashmalarida kamida 16 % quruq protein va ko'pi bilan 11 % kletchatka saqlanishi kerak. Tarkibini 20 % dan so'li doni, zig'ir kunjarasi yoki shroti, qolgan tarkibi esa tegirmon sanoati chiqindilari, dukkakli ekinlar, kunjara, o't uni, quruq achitqilar va boshqalar tashkil etadi.

Agar yog'sizlantirilgan sut bo'lmasa, buzoqlarga maxsus sut beriladi. Uning tarkibida kamida 30 % xom protein, 3 % yog' va ko'pi bilan 8 % quruq kletchatka bo'ladi. Bu xil kombikorm quruq holda yoki atala qilib beriladi. Buzoqlar parvarishi va burdoqiga boquvida sut almashtirgichlardan foydalanish to'liq qiymatli sut sarfini anchigina kamaytiradi.

Xulosa. Chorvachilik fermer xo'jaliklarida qoramollarning bosh sonini ko'paytirish va mahsulot ishlab chiqarishni oshirish, xo'jalikda olingan buzoqlarni sut emish davrida ularni parvarishlash bilan bog'liq.

Chorvachilik fermer xo‘jaliklarida olingan buzoqlarni su’niy sut bilan oziqlantirish so‘f sutni tejab qolish hisobiga xo‘jalikning iqtisodiy daromadini oshirardi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. S.O. Kazakova, NP Roziboev (2022) Characteristics milk production of cows with different body composition World Bulletin of Management and Law. 35-38.
2. S.O.Kazakova, S.D.Bahodirov. (2023) Mamlakatimizda go‘sht kanservalari ishlab chiqarishning xozirgi holati va rivojlanishi. Agrobiotexnologiya va veterinariya tibbiyoti ilmiy jurnalni. 136-141
3. Qo‘ziyev, I. Q., Fayzullayev, O. B., To‘xtayev, O. B., & Boymatov, O. S. (2022). Ozuqa bazasini mustahkamlashda senaj tayyorlashning ahamiyati. agrobiotexnologiya va veterinariya tibbiyoti ilmiy jurnalni, 844-847.
4. Mamatrizayev, N. A., Xikmatov, X. I., & Tuxtayev, O. B. (2020). Pervonachalnyye rezul'taty ispolzovaniya baranov-proizvoditeley afganskoy populyasii. Aktualnyye problemy sovremennoy nauki, (5), 164-166
5. Горбачева Н.Н., Крисан А.Ф. Поедаемост кормов и переваримость питательных веществ расионов коровами в период раздоя. Ж.Зоотехния. 2004. №9.
6. Басонов О.А. Баланс азота, кальция т фосфора у лактирующих коров. Журнал Зоотехния, 2005, №5
7. Бондарев В.А. «Повышение качества заготовляемых кормов важная задача». Ж. Животноводство, 1976. № 4.
8. Juraali o’g’li, F. N. (2023). ABDURAHMON JOMINING TALIMIY AXLOQIY QARASHLARI. YANGI O ‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 1(1), 48-53.
9. Mamurzoda, K. X. (2024). TARBIYA JARAYONINING MOHIYATI VA MAZMUNI TARBIYA QONUNIYATLARI VA TAMOYILLARI. JAMOA TARBIYA OBYEKTI VA SUBYEKTI SIFATIDA. Ta’lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 17(4), 171-175.
10. Ibrohimovna, T. N., & Uktamovich, G. I. (2023). THE COLLOQUIAL SPEECH IN ENGLISH LINGUISTICS. YANGI O ‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 1(1), 76-78.
11. Абдурахмонов, А. Т. (2023). ВАТАННИ СЕВМОҚ ИЙМОНДАНДИР!. YANGI O ‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 1(1), 79-84.